

## **TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI.**

*Andijon viloyati Izboskan tumani 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Biologiya fani  
o‘qituvchisi*

***Yusupova Gulshanoy Xaydarovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tabiiy fanlarni o‘qitishda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fanlar, diktatika, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, yalpi o'qitish, o'qitish metodi.

Tabiiy fanlar fanning olamni u biror tabiiy qonunlarga bo‘ysunadi, deb qarovchi va uni ratsional o‘rganuvchi bo‘limlaridir. Tabiiy fanlar uslubiyati ijtimoiy va aniq fanlar uslubiyatidan farq qiladi. Tabiiy fanlar sirasiga astronomiya, fizika, geografiya, kimyo, biologiya kiradi. Didaktika va tabiiy fanlar o'qitish metodikasiga oid manbalarda o'qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, didaktik olim Yu.K.Babanskiy fikricha, o'qitishni tashkil etish shakllari ta'lim- tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan individual yoki yalpi o'qitishning nisbati, o'quv-bilish faoliyatining faollik darajasi, hamkorlikda tashkil etilgan o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining rahbarlik roli, pedagogik faoliyatining me'yorini belgilaydi. Tabiiy fanlar o'qitish metodikasida o'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar kiradi. Mazkur o'qitish shakllari birgalikda tabiiy fanlarni o'qitish shakllari tizimini tashkil etadi. O'qitishning asosiy shakli bo'lgan - dars, ularni bog'lovchi vazifasini bajaradi va o'qitishda etakchi o'rinni egallaydi. Dars, ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar birgalikda tabiiy fanlarni o'qitishdan ko'zda tutilgan umumiy o'quv

maqsadlariga erishishni ta'minlaydi, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish, olingan natijalarni tahlil qilishga xizmat qiladi. O'qitishni tashkil etish tizimining tarkibiy qismlari bo'lgan dars, ekskursiya, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning har biri biologik ta'lim oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan alohida o'z ulushi mavjud. Mazkur ulushni xususiy maqsadlar xam deyish mumkin. O'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllarida ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifasiga bog'liq holda muayyan metod va vositalardan foydalaniladi. Shu sababli, o'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ta'lim mazmuni, mazkur shakllarning maqsadi, vazifasi, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni, ularning xususiy maqsadlariga mosligi e'tiborga olinishi lozim. Masalan, o'rganiladigan mavzu kattalashtiruvchi asboblardan yoki laboratoriya jihozlari bilan bog'liq, shuningdek, anatomik mazmun, fiziologik jarayonlar, nazariya, g'oya, tushunchalar, qonunlar, masala yechish o'rganiladigan bo'lsa, unda albatta o'qitishning asosiy shakli bo'lgan darsni tanlash zarur. O'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini to'g'ri tanlashda tabiiy fanlarni o'quv xonasining jihozlanishi va o'quv-moddiy texnika bazasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'qitish shakllarining maqsadi va vazifalarini to'g'ri anglagan holda, mazkur jarayondan tasviriy, tabiiy va tarqatma materiallar tayyorlash orqali ko'rgazmalilikni amalga oshirishni ko'zda tutishi lozim. Shunday qilib, tabiiy fanlarni o'qitish shakllari: dars, ekskursiya, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar muayyan tizimni hosil qilib, ular o'quvchilar tomonidan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish, bilish faoliyati usullarini egallash va o'qitish samaradorligini orttirishga xizmat qiladi. Dars o'qitishning asosiy shakli bo'lib, unda tabiiy fanlar o'quv dasturidan o'rin olgan o'quv materialining asosiy qismi o'rganiladi. Darsda o'qituvchi ta'lim mazmuni, o'qitish metodi va vositalarining uyg'unligi orqali o'qitish maqsadlariga erishishni nazarda tutadi. Lekin, hamma masalalarni ham darsda o'rganish imkoni bo'lmaydi, masalan uzoq muddatli kuzatish ishlarini talab etadigan tajribalarni o'tkazishda darsdan tashqari

ishlardan foydalaniladi. Darsdan tashqari ishlarning davomiyligiga ko'ra: qisqa muddatli, mavsumiy yoki yillik bo'lishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan tajribalar qisqa muddatli, botanika va zoologiya o'quv fanlaridan beriladigan yozgi topshiriqlar mavsumiy, o'simliklardagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish yillik darsdan tashqari ishlar sirasiga kiradi. Botanika va zoologiya o'quv fanlaridan beriladigan yozgi topshiriqlar muayyan tizimga ega bo'lishi lozim, chunki uning natijalaridan kelgusida ko'rgazma materiallari shaklida foydalanish ko'zda tutiladi. Ekskursiya - o'qitish jarayonining muhim shakli bo'lib, ular o'quvchilarni tirik tabiatning ob'ektlari, hodisalari, qonunlari, asosiy nazariy g'oyalari bilan tanishtirish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, olamni bilish metodlarini egallash imkonini beradi. Ekologik jihatdan tabiatga to'g'ri tashkil etilgan ekskursiyalar o'quvchilarda mahalliy biogeotsenozlar, o'simliklar va hayvonot olamining xilma-xilligi haqida bilimlarini kengaytirish, mahalliy ob'ektlardan ko'rgazma materiallarini tayyorlash, ularni jihozlash, tabiatga muhabbat uyg'otish, estetik did va madaniyat, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish imkonini beradi. Tabiiy fanlarni o'qitishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Mazkur o'qitish shakli ixtiyoriy bo'lib, o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishi, olamni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olingan holda tashkil etiladi.

**Xulosa:** Tabiiy fanlarni o'qitishning yuqorida qayd etilgan shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'rtasida doimiy ravishda izchillik, o'zaro uzviylik va aloqadorlik mavjud bo'lib, ular o'quv-tarbiya jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Tabiiy fanlarni o'qitish maqsadi va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish uchun o'qituvchi o'qitish shakllarining umumiy va xususiy maqsadlarini anglagan holda, ularni uyg'unlashtirgan tarzda yillik istiqbol rejasini tuzishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipova J.O., G'ofurov A.T.. **Biologiya ta'limi texnologiyalari.** - T.: O'qituvchi, 2012[1]
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)[2]
3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. **Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma.** - Toshkent«Bilim» 2014[3]
4. Tolipova J.O. G'ofurov A.T. **Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik.** - Toshkent-Moliya-iqtisod, 2017[4]
5. Yuldashev, O. (2021). **РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. НАУКА И МИР.**